

NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING TA'LIM  
OLUVCHILARNING ONGINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

N.J.Raxmatova

M.I.Sharopova

*Buxoro shahar kasb-hunar maktabi o'qituvchilari*

O'quvchi shaxsida uning moyilliklari ,qiziqishlari va ijtimoiy o'z-o'zini belgilashga bo'lgan layoqatlarining qaror topishi fan asoslaridan tizimli bilim olish, keng dunyoqarash va ijodiy tafakkurning shakllanishi ,atrofdagi olamga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish xalqning boy ma'naviy va madaniy me'rosdan bahramand bo'lishni ta'minlaydi.

Har bir o'qituvchi o'z ishini yaxshi bilishi va o'z ustida tinimsiz ishlashi, ijodkor bo'lishi lozim.

Har qanday boshlangan ishning muvaffaqiyatli chiqishi bir qancha shart-sharoitlarga ,ishning g'oyaviy -siyosiy yo'nalishiga , uni bajaruvchisining malakasiga , moddiy bazaga va boshqa ko'plab omillarga bog'liq.Ish bajarishda bajaruvchining shu ishni qay darajada bajara olishi muhim ahamiyatga ega. Har qanday mutaxassis o'z ish metodikasiga qanchalik e'tibor bersa,shunchalik yaxshi natijalarga erishadi.O'qituvchining asosiy ishi o'quvchilarga ta'lim berish ,tarbiyalash va ularni ma'naviy ,ham dialektik rivojlantirishdir.

Har qanday jamiyat o'z oldiga ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishni maqsad qilib qo'yadi.Uni amalga oshirish ta'lim sohasini isloh qilishdan boshlanadi.Jamiyat talabidan kelib chiqib , o'rta umumta'lim maktablari fan asoslarining elementar bilimlarni berishi ,o'sib kelayotgan avlodning qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda fan va texnikaning rivoji darajasida dunyoqarashlarini shakllantirishlari , siyosiy-ijtimoiy hayotga tayyorlashlari , shuningdek , estetik didli ma'naviy va jismoniy barkamol bo'lib yetishishlarini ta'minlashlari zarur. Bu esa jamiyatning kelgusi taraqqiyot yo'nalishini belgilab bermog'I lozim. Shu sababli har qanday davlatning kelajagi o'qituvchilarining fidokorona mehnatlari natijasiga bog'liq.

O'quvchining diqqat- e'tibori,qiziqishi bilan qiziqmasdan turib ta'lim-tarbiya jarayonining sifati va samarasini tasavvur etish mushkul. Buning uchun o'qituvchi ikkita asosni doimo e'tiborda tutishi zarur. Bu ta'limning talabi nutq bilan , tarbiyaning talabi xulq bilan ekanligi omilidir.O'quvchida ham shu xususiyatlarning mujassamini ko'rishni istagan pedagog , avvalo, nutqiy va xulqiy madaniyatning o'z qiymatida bo'lishiga erishishi maqsadga muvofiq. O'qituvchining yurish-turishi , kiyinishi va ko'rinishi , nutqi va go'zallik kategoriyalariga , ya'ni yetuk va estetik asoslariga qurilgandagina maqsadning ro'yobini ko'rish mumkin. O'zi istagan va istamagn holda o'quvchi nigohida tasdiq yoki inkor mazmunidagi munosabat oshkora bo'lmasada pinhoniy tarzda aks etishi tabiiy .Shunday ekan , didi , bilim saviyasi va mahorati ibratli bo'lgan pedagoglarga o'quvchilarning ergashishi , ulardan ta'sirlanish asnosida taqlid qilishi bejiz emas.

Adabiy til me'yorlariga rioya etish , nutqning to'g'riligi , aniqligi , mantiqiyligi , tozaligi va boyligi masalasini bilish ,amalda qo'llay olish ,pedagogning o'z fanini chuqur bilishi bilan

birgalikda muhim ahamiyat kasb etishi muqarrardir. Har qanday pedagog ,avvalambor, notiq bo'lishi kerak. Sozdan ustalik bilan foydalana bilishi zarur. Buning uchun u ancha tajriba va malakaga ega bo'lishi kerak.

Nutq xususiyatlarini bilmaslik va nutq texnikasiga amal qila olmaslik ham o'quvchini chalg'itadi, ularning e'tiborini susaytiradi. Natijada fandan bezish boshlansa, o'quvchilar har xil ta'sirlarga beriluvchan bo'ladi. Fandan bezsa erta-indin Vatandan bezadi, Vatandan bezdimi, demak ,vatangado, oqibatda kafangado demakdir. Achchiqroq bo'lsada, bu haqiqatdan ko'z yumib bo'lmaydi. O'quvchining fanga qiziqtirish , e'tiborini tortish masalasi ham pedagogning notiqlik mahorati , tajribasi ,kasbiy kompetensiyasi bilan bog'liqdir.

To'g'ri , hozirgi kunda ta'lim jarayoniga yangi , zamonaviy usul va vositalarning kirib kelishi , uni keng ko'lamda , jadal sur'atlarda amalda qo'llash kuzatilmoqda. Lekin bu pedagogning boshlovchilik va nutq mahoratini inkor qilolmaydi. O'quvchi ham, o'qituvchi ham bilim olishning yagona manbai bo'lib qolishi kerak emas, balki fikrlovchi , mustaqil ishlash asnosida o'quv jarayonining faol ishtirokchisi bo'lishi lozim. Qarsak ikki qo'ldan chiqishini bilish foydadan holi emas. Zamon talablariga javob beradigan fidoyi , notiqlik mahoratiga ega , izlanuvchan , yangilikka intiluvchan , tashabbuskor , kasbiy bilimlarga ega kadrlar davlatimiz istiqbolidir. Pedagog kompetensiyasi avvalo , uning nazariy va amaliy bilim , ko'nikma va malakasi , dunyoqarashi , e'tiqodi va barcha shaxsiy individual ijtimoiy-psixologik sifatlarining namoyon bo'lishi bilan birga uning notiqlik san'atidan mohirona foydalana olishi bilan izohlanadi. Bu esa ta'limning sifat va samaradorligini ta'minlovchi muhim omillaridan bo'lib , u pedagogic moslashuv tizimi asosida namoyon bo'ladi. Bular : ---  
-----Ilmiy bilish , pedagogic faoliyatni epchillik , omilkorlik , mohirlik bilan bajara olish , har qanday muammoli vaziyatlarning samarali yechimini topishga ijodiy kreativ yondashish , ta'limiy -tarbiyaviy ta'sir jarayonida yuksak ijtimoiy psixologik xususiyatlarini namoyon etish , o'zining intellektual , kognitiv , emotiv , notiqlik , axloqiy salohiyatini , o'rganish va ichki psixologik zahirasidan samarali foydalanish orqali o'zini muttasil rivojlantirish , jamiyat va insonlarga , tabiatga , borliqqa ijobiy munosabatda bo'lishdir.

Fan va texnikaning rivojlanishi o'quvchilarni bilimlar oqimiga va voqealar to'lqiniga bo'lgan qiziqishini kuchaytirmoqda . Bugungi kun nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak , o'quvchilar bilim faoliyati yuqori , aqliy faoliyati yaxshi va mustaqil fikrlay olishi zarur. O'quvchilardagi bunday xislatlarni maktab o'qituvchilari rivojlantirib boradilar. Mustaqil yurtimiz ravnaqi uchun , kelajak avlodimiz uchun bunday sharaflilik ishda mas'uliyat bilan ishlash har bir pedagogning burchi hisoblanadi.